

O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI BILAN HAMKORLIK ALOQALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Amonov Mirjalol Mansurovich

Bank Moliya Akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11554024>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish istiqbollari xususida so'z boradi. O'zbekistonning bugunigi kuni uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro moliya tashkilotlarining millatimiz taraqqiyotida naqadar muhim ahamiyat kasb etishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: moliya institutlari, moliya bozori, xalqaro moliya tashkilotlari, eksport, valyuta bozorlari.

PROSPECTS OF DEVELOPING COOPERATIVE RELATIONS WITH INTERNATIONAL FINANCIAL ORGANIZATIONS OF UZBEKISTAN

Abstract. This article talks about prospects for developing cooperation relations of Uzbekistan with international financial organizations. It has been revealed how important the international financial organizations are for the development of our nation.

Key words: financial institutions, financial market, international financial organizations, export, currency markets.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТНОШЕНИЙ СОТРУДНИЧЕСТВА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье говорится о перспективах развития отношений сотрудничества Узбекистана с международными финансовыми организациями. Выявлено, насколько важны международные финансовые организации для развития нашей страны.

Ключевые слова: финансовые институты, финансовый рынок, международные финансовые организации, экспорт, валютные рынки.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni yangi davr darajasiga ko'tarish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish va jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga jadal kirib borish xalqaro moliya munosabatlarini barqaror rivojlantirishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish va shu asosda raqobatbardoshlikka erishish, jahon bozorlaridan mustahkam o'rin egallash, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq.

Mazkur masalalarni ijobiy hal qilishda mamlakatning xalqaro moliya bozoridagi ishtiroki muhim o'rin tutadi. tashkilotlari

Xalqaro moliya tashkilotlari xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Xalqaro moliya munosabatlari muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro darajada shakllantirilgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Xalqaro moliya munosabatlari o'ziga xalqaro valyuta munosabatlari, xalqaro kredit munosabatlari, xalqaro investitsiya munosabatlari, xalqaro savdo munosabatlari, xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro lizing munosabatlari, mamlakatlar to'lov balansini boshqarish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalar kabi munosabatlarni qamrab oladi.

Globalashuv jarayoni – jahon savdosining o'sishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kengayishi, kapitalning xalqaro oqimini rivojlanishi, xizmatlar va mahsulotlarning xalqaro xarakati xalqaro moliyaning rivojlanishiga zamin yaratdi. Shuningdek, mazkur 6 holat jahon moliya bozorlarining, xalqaro moliyaviy korporatsiyalarning yuzaga kelishiga, davlatlararo moliyaviy munosabatlarning va xalqaro moliyaviy faoliyatning boshqa jihatlarini murakkablashuviga olib keldi.¹

So'nggi yillarda mamlakatimizda xalqaro moliya institutlari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga, iqtisodiyotda istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga ular mablag'larini keng jalb etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur jarayonda Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, Islom taraqqiyot banki kabi yirik xalqaro moliya institutlari bilan izchil va faol hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Shu o'rinda Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy yo'nalishda hamkorlikni sezilarli tarzda o'sib, rivojlanib borayotganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Jumladan, Davlat statistika qo'mitasi O'zbekistonning 2020 yil 9 oyi davomidagi tashqi savdo aylanmasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni e'lon qildi.

Unga ko'ra, joriy yilning o'tgan 9 oyi davomida O'zbekistonning eng ko'p tashqi savdo aylanmasi Xitoy bilan bo'lgan – 4,6 mlrd, bunda eksport – 1,4 mlrd, import 3,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Keyingi o'rinda Rossiya turibdi – 4,1 mlrd, eksport – 1,1 mlrd, import 3 mlrd AQSh dollari. Yuqori uchlikni Qozog'iston yakunlab beradi – 2 mlrd., eksport – 646,2 mln, import 1,3 mlrd AQSh dollari. Shuningdek, O'zbekistonning quyidagi davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi yuqori bo'lgan. Koreya – 1 mlrd 599,6 mln, eksport – 34,1 mln, import 1 mlrd 565,5 mln AQSh dollari. Turkiya – 1 mlrd 434,1 mln, eksport – 650,9 mln., import 783,2 mln AQSh dollari. Qirg'iziston – 660,7 mln, eksport – 561,1 mln, import 99,6 mln AQSh dollari. Germaniya – 574 mln, eksport – 51,3 mln, import 522,8 mln AQSh dollari. Afg'oniston – 542,9 mln, eksport – 541,3 mln, import 1,7 mln AQSh dollari. Tojikiston – 358,8 mln, eksport – 289,1 mln, import 69,7 mln AQSh dollari. Turkmaniston – 323,6 mln, eksport – 97,8 mln, import 225,9 mln AQSh dollari. Dunyoning yetakchi davlatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlangan mamlakatlar, xususan, Koreya Respublikasi va Yaponiya, Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi, arab-musulmon hamda turkiy tilli davlatlar bilan o'zaro manfaatli, samarali va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.²

Mamlakatimiz Jahon banki bilan ham quyidagi loyihalar doirasidafaol hamkorlik qilmoqda: qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash, irrigatsiya infratuzilmalari va drenajlarni rekonstruksiya qilish, maktab ta'limini rivojlantirish, suv resurslarini boshqarish, shaharlarda quvurlar tizimi va tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish, sanoat korxonalarida energiya

¹ J. Ataniyazov. Xalqaro moliya bozori. Toshkent. 2019. 44-bet.

² X. Ataniyazov, E.D.Alim ardonov. Xalqaro moliya munosabatlari. <https://fayllar.org/j-xataniyazov-e-d-alim-ardonoy-xalqaro-moliya-munosabatlari.html>

samaradorligini oshirish, suv ta'minotini yaxshilash, sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash, elektr energiyasidan foydalanishni nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish kabilar.

Mamlakatimizning Osiyo Taraqqiyot banki bilan o'zaro hamkorlik aloqalari yetarli darajada faol rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda Osiyo Taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar qishloq xo'jaligi, ta'lim, energetika, moliya, sog'liqni saqlash, sanoat va savdo, davlat boshqaruvi, transport tizimi, suv ta'minoti va shahar infratuzilmasini yaxshilash kabi sohalarga yo'naltirilgan. 1995 yildan buyon Osiyo Taraqqiyot bankidan 8,67 mlrd. AQSH dollari miqdorida kredit, grant va texnik yordam mablag'lari jalb etilgan. 2019 yilda bank tomonidan umumiy qiymati 1,1 mlrd. AQSH dollari tashkil etadigan yettita loyiha va dastur uchun hamda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga 600 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan kredit mablag'lari ajratildi.

Mamlakatimiz mintaqaviy rivojlanish banklaridan bo'lgan Islom Taraqqiyot banki bilan ham faol hamkorlik aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Bank bilan hamkorlik doirasida, Islom Taraqqiyot banki guruhi (Islom taraqqiyot banki, Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha islom korporatsiyasi, Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi, Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi, Tadqiqotlar va treninglar islom instituti) sog'liqni saqlash, energetika, qishloq xo'jaligi, qurilish, maktab va kollejlarni jihozlash, avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash, davlat moliya tizimida islohotlar o'tkazish kabi sohalardagi loyihalarni (jami 86 loyiha) moliyalashtirish uchun 2 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratish haqida qaror qabul qilgan va shundan 1,1 mlrd. AQSH dollaridan ziyod qismi bugungi kungacha moliyalashtirilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, aytish mumkinki, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot banki mamlakatimizda qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda o'zining mablag'larini ajratish bilan faol ishtirok etmoqda.

Jahon banki tomonidan O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi yuzasidan bergan baholari va prognozlariga ko'ra, 2021 yilda YAIM o'sishi 4,8 dan 5,0 foizgacha bo'lishi kutilmoqda. 2020 yil avgust oyida inflyatsiya 11,6 foizgacha pasaydi, bu esa Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini 2020 yilda ikki marta, aprelda 16 foizdan 15 foizgacha va sentyabrda 14 foizgacha pasaytirishga imkon berdi.

Hozirgi kunda xalqaro valyuta jamg'armasi hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishi quyidagicha baholanmoqda. O'zbekiston 2020 yilda umumiy o'sishni ijobiy tomonga ko'targan bir necha mamlakatlar qatoriga kirdi va 1,6 foizni tashkil etdi, ammo bu pandemiya natijasida oldindan prognoz qilingan o'sish sur'atlaridan taxminan 4 foizga kamroq bo'ldi. Byudjet orqali ijtimoiy iqtisodiy hayotni qo'llab-quvvatlash natijasida 2020 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat byudjeti taqchilligi YAIMning 4,5 foizi darajasida yoki kutilgandan 2,5 foiz kamroq bo'ldi.³

Xulosa o'rnida aytishimiz joizki, xalqaro moliya tashkilotlarining mamlakatimiz iqtisodiyotida o'rni va roli beqiyosdir. Busiz O'zbekiston kelajagini tasavvur qilish qiyin holat.

³ K. Rahmanova. Moliya tashkilotlari tavsifi. Samarqand. 2002. 98.

REFERENCES

1. Ataniyazov. Xalqaro moliya bozori. Toshkent. 2019. 44-bet.
2. X. Ataniyazov, E.D.Alim ardonov. Xalqaro moliya munosabatlari. <https://fayllar.org/j-xataniyazov-e-d-alim-ardonov-xalqaro-moliya-unosabatlari.html>
3. K. Rahmanova. Moliya tashkilotlari tavsifi. Samarqand. 2002. 98-bet.